


Farg'ona viloyatining  
Tashqi savdo aylanmasi  
(2018 yil yanvar-noyabr)


Tashqi savdo tovar aylanmasi dinamikasi,  
mln. AQSh dollari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 1258,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45,7 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 484,0 mln. AQSh dollarga (o'sish sur'ati 0,2 %) va import hajmi 774,3 mln. AQSh dollariga (avalgi yilga nisbatan 2,0 marta ko'p) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 290,3 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xomashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2018 yilda  
tovarlarning oylik  
eksport-import  
ko'rsatkichlari  
dinamikasi**  
mln. AQSh dollari



2018 yil yanvar-noyabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qoldi.

Farg'ona viloyatida tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,0 % oshdi va 56,0 % ga yetdi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-noyabr oylarida 48,0 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasi 44,0 % ga tushdi.

Farg'ona viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollari)


	Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi		
					ulushi, %	o`zgarish sur`ati, %	
	Rossiya	322,09	118,32	203,77	25,60	1,7 b	↑
	Xitoy	298,62	105,08	193,53	23,73	1,8 b	↑
	Qozog`iston	257,11	83,38	173,73	20,43	1,5 b	↑
	Qirg`iziston	84,78	50,49	34,29	6,74	1,7 b	↑
	Turkiya	50,40	29,79	20,60	4,01	84,3	↓
	Koreya Respublikasi	28,35	5,07	23,28	2,25	87,1	↓
	Germaniya	25,89	1,72	24,17	2,06	2,8 b	↑
	Polsha	19,90	18,19	1,71	1,58	107,0	↑
	Bangladesh	17,15	17,15	0,00	1,36	106,1	↑
	Tojikiston	15,75	6,54	9,21	1,25	1,2 b	↑
	Hindiston	12,54	0,09	12,44	1,00	5,2 b	↑
	Latviya	9,36	1,12	8,24	0,74	1,3 b	↑
	Turkmaniston	9,25	0,48	8,76	0,73	1,3 b	↑
	Shveytsariya	7,78	0,00	7,78	0,62	4,0 b	↑
	Ukraina	7,38	4,01	3,37	0,59	70,3	↓
	Eron	6,65	3,73	2,92	0,53	48,4	↓
	Litva	6,45	1,86	4,58	0,51	2,0 b	↓
	Yaponiya	6,31	0,29	6,03	0,50	4,2 b	↑
	Italya	5,97	0,42	5,54	0,47	55,5	↓
	Chehiya	5,84	1,80	4,04	0,46	2,1 b	↑

**Farg'ona viloyat  
eksporti**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yil yanvar-noyabr oylarida eksport hajmi 483,9 mln. AQSh dollarga (o'sish sur'ati 0,2%) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,3 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (35,0 %), shuningdek, energiya manbaalari va neft mahsulotlari (5,0 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,5 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	<b>483,9</b>	<b>100,2</b>	<b>100,0</b>	<b>267,6</b>	<b>107,2</b>	<b>100,0</b>	<b>216,4</b>	<b>92,7</b>	<b>100,0</b>
Paxta tolasi	1,1	9,0	0,2	0,0	-	0,0	1,1	9,0	0,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	169,7	1,2 b	35,1	163,4	1,3 b	61,1	6,3	44,7	2,9
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	2,6	5,8	0,5	2,3	7,8	0,9	0,2	1,6	0,1
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	24,4	1,5 b	5,0	12,1	2,1 b	4,5	12,3	1,1 b	5,7
Qora va rangli metallar	0,04	62,7	0,0	0,04	62,7	0,0	0,00	-	0,00
Mashina va asbob uskunalar	0,6	1,6 b	0,1	0,6	1,5 b	0,2	0,6	5,5 b	0,2
Xizmatlar	8,1	1,4 b	1,7	6,1	1,5 b	2,3	2,0	99,9	0,9
Boshqalar	277,5	104,3	57,3	83,0	96,8	31,0	194,5	1,1 b	89,9

**eksport  
tarkibi, %**



Farg'ona viloyatidan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 41,7 % ini tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar bilan  
eksport tarkibi  
(yanvar-noyabr oylari)

(ming. AQSh doll.)


	Rossiya Federatsiyasi		Qozog'iston Respublikasi	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
<b>Jami eksport</b>	<b>107589,7</b>	<b>118318,9</b>	<b>77817,2</b>	<b>83375,8</b>
paxta tolasi	0,0	0,0	0,0	0,0
oziq-ovqat mahsulotlari	38076,6	44348,4	66749,8	76941,7
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	3121,2	32,2	1313,0	202,2
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,0	0,0	3524,3	3801,2
qora va rangli metallar	0,0	4,5	9,0	7,0
mashina va asbob-uskunalar	369,6	462,8	1,9	10,1
xizmatlar	3951,5	6024,5	2,7	21,7
boshqalar	62070,6	67446,5	6216,6	2391,6

**Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida jami 168,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 167,6 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o`shish sur`ati 24,0 %).

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2018 yilning yanvar- noyabr oylarida 89,5 ming tonna meva va rezavorlar 121,4 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo`lib, eksport hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 11,1 ming tonnaga kam. Shuningdek, 42,6 ming tonnadan ko`proq sabzavotlar 17,6 mln. AQSh dollariga yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 ming tonnaga kam miqdorda eksport qilingan.

### Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



### Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar- noyabr		
	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %
Qozog`iston	78,4	66,0	48,8	60,0	76,2	45,4
Rossiya	56,3	37,8	27,9	59,2	43,8	26,1
Qirg`iziston	25,2	16,1	11,9	38,2	39,8	23,8
Afg`oniston	5,2	4,7	3,4	3,5	2,8	1,7
Turkiya	1,9	2,6	1,9	0,7	0,6	0,3
Ukraina	0,7	0,4	0,3	2,0	1,2	0,7


**Farg'ona viloyatining importi**

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 774,3 mln. AQSh dollariga (o`shish sur`ati 3,3) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush energiya manbalari va neft mahsulotlari (33,2%), mashina va uskunalar (25,3 %) hamda qora va rangli metallar (10,1 %) guruhlari hisobiga to`g`ri keldi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	<b>774,3</b>	<b>2,0 b</b>	<b>100,0</b>	<b>437,1</b>	<b>2,2 b</b>	<b>100,0</b>	<b>337,3</b>	<b>1,9 b</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	52,3	1,7 b	6,7	38,9	1,6 b	8,9	13,4	1,9 b	4,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	68,2	1,4 b	8,8	18,5	2,4 b	4,2	49,7	1,2 b	14,7
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	257,0	2,3 b	33,2	256,6	2,3 b	58,7	0,4	1,9 b	0,1
Qora va rangli metallar	78,5	3,4 b	10,1	28,7	2,8 b	6,6	49,8	3,8 b	14,8
Mashina va asbob uskunalar	195,5	2,0 b	25,3	8,8	1,1 b	2,0	187,1	2,1 b	55,5
Xizmatlar	5,9	1,5 b	0,8	0,2	4,7 b	0,0	5,7	1,4 b	1,7
Boshqalar	116,7	1,7 b	15,1	85,5	2,1 b	19,6	31,2	1,2 b	9,3




**Import tarkibi, %**



Xizmatlar importi hajmi 5,9 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,8 % ini tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 % ga o`tdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo`ldi.


**Farg'ona viloyat  
importida asosiy  
hamkor  
davlatlarning hajmi,  
mln. AQSh doll.**



2018 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatga 77 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 629,5 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 81,3 %ini tashkil qiladi.

**2018 yil yanvar-  
noyabr oylarida  
tovarlar importi  
dynamikasi**  
(oylar kesimida, mln.  
AQSh dollari)

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning o'tgan davri mobaynida viloyat import qilinayotgan tovarlar hajmi iyun oyida eng yuqori ko'rsatkichni qayd etib, noyabr oyida oktabr oyiga nisbatan qiymati 61,8 mln. AQSh dollariga ko'proq tovarlar import qilindi va 82,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



So'nggi yillarda ichki ishlab chiqaruvchilarimizning tashqi bozorda mustahkam o'rin egallashlari va ularning eksportga qaratilgan faoliyatini mustahkamlash maqsadida, Hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojhona imtiyozlari va boshqa imkoniyatlarni yaratilishi natijasida korxonalar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni olib kirib, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi va tashqi bozorlarda o'z o'rinlarini egallashlari uchun zamin yaratilmoqda.